



**5-sho'ba. Xalqaro tajriba va
hamkorlik istiqbollari.**

O'QUVCHI-YOSHLARDA TADBIRKORLIK VA IQTISODIY KOMPENSATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

Panjiyeva Iroda Rahim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Telefon raqam: +998 97 4557577

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarda tadbirkorlik va iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishning mazmuni, ahamiyati hamda zamonaviy yondashuvlar keng yoritilgan. Tadqiqot davomida kuzatish, tahlil, taqqoslash, pedagogik tajriba va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda ta'lim jarayonining o'rni, oilaning va jamoatchilikning roli, shuningdek, me'yoriy-huquqiy asoslarning ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada o'quvchi yoshlarda iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *Tadbirkorlik, iqtisodiy kompetensiya, innovatsion ta'lim, iqtisodiy tafakkur, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy ta'lim, kreativ fikrlash.*

Abstract. *This article broadly covers the content, importance, and modern approaches to the formation of entrepreneurial and economic competencies in young students. The research used observation, analysis, comparison, pedagogical experience, and theoretical generalization methods. The role of the educational process, the role of the family and society, as well as the importance of regulatory and legal frameworks in the development of young people's economic thinking are scientifically analyzed. The article shows ways to ensure personal and social success by developing economic thinking and entrepreneurial abilities in young students.*

Keywords: *Entrepreneurship, economic competence, innovative education, economic thinking, financial literacy, economic education, creative thinking.*

Аннотация. *В статье широко рассматриваются содержание, значение и современные подходы к формированию предпринимательских и экономических компетенций у учащейся молодежи. В исследовании использовались методы наблюдения, анализа, сравнения, педагогического опыта и теоретического обобщения. Научно проанализирована роль образовательного процесса, семьи и общества, а также значение нормативно-правовой базы в развитии экономического мышления молодежи. В статье показаны пути обеспечения личностного и общественного успеха посредством развития экономического мышления и предпринимательских способностей у учащейся молодежи.*

Ключевые слова: *Предпринимательство, экономическая компетентность, инновационное образование, экономическое мышление, финансовая грамотность, экономическое образование, творческое мышление.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining sifati, yosh avlodning bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga bevosita bog'liq. Bugungi globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida o'quvchi yoshlarda tadbirkorlik va iqtisodiy kompetensiyalarni takomillashtirish masalasi milliy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchi yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish hamda ularni amaliy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan vazifalar belgilab berilgan.

Asosiy qism. Iqtisodiy kompetensiya — bu shaxsning iqtisodiy jarayonlarni anglash, ularni tahlil qilish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy qarorlarni ongli qabul qilish qobiliyatidir. Bu kompetensiya nafaqat iqtisodiy bilim, balki mustaqil fikrlash, mas'uliyat, mehnatsevarlik, tejamkorlik, innovatsion yondashuv kabi sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida ta'lim, tarbiya, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika omillari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda qaralishi zarur. O'quvchi yoshlarning iqtisodiy fikrlash doirasini kengaytirish, moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir inson o'z resurslarini to'g'ri taqsimlash, riskni baholash, foydani hisoblash va iqtisodiy qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladi. Shu boisdan maktab ta'limi bosqichidayoq o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik ruhini shakllantirish ularni kelajak hayotga puxta tayyorlash uchun zarur shartdir.

Tadbirkorlik kompetensiyasi esa o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, riskni to'g'ri baholash, muammolarga noodatiy yondashuv, qaror

qabul qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish, ularni kichik biznes va startap loyihalari bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Hozirgi davrda "Yoshlar startapi", "Biznes maktab", "O'quvchilar innovatsion g'oyasi" kabi loyihalar orqali yoshlarning iqtisodiy salohiyatini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ta'lim jarayonida tadbirkorlik va iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligi o'qituvchi faoliyatining innovatsion yondashuviga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi nafaqat iqtisodiy bilimlarni yetkazuvchi, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, iqtisodiy muammolarga ijodiy yondashishga o'rgatuvchi shaxsdir. Shu maqsadda interfaol o'qitish metodlari — loyihaviy o'qitish (project-based learning), keys-stadi (case study), simulyatsiya o'yinlari, iqtisodiy trenajyorlar, iqtisodiy laboratoriya mashg'ulotlari kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu metodlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, ularning tahliliy va qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Loyihaviy o'qitish jarayonida o'quvchilar real iqtisodiy muammolarni mustaqil hal etishga, biznes reja tuzishga, investitsion loyihalarni baholashga, bozor tahlilini o'rganishga o'rganadilar. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy tafakkurni, balki ijodkorlikni, kommunikativlikni, tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'yinlar, moliyaviy kvestlar, interfaol mashg'ulotlar o'quvchilarni darsga faol jalb etadi va o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rgatadi. O'quvchilarda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Chunki iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonida shaxsning o'ziga ishonchi, motivatsiyasi, maqsadga yo'naltirilganligi va emotsional barqarorligi katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish jarayonida ularda "men qila olaman", "men muvaffaqiyatga erishaman" degan ishonchni shakllantirish, ularni muvaffaqiyatli tadbirkorlar hayoti bilan tanishtirish samarali natija beradi. Bu

orqali o'quvchilarda iqtisodiy faollik, tashabbuskorlik va javobgarlik hissi kuchayadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida iqtisodiy ta'limni kuchaytirish yo'nalishida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktab va kollej dasturlarida "Iqtisodiy bilim asoslari", "Moliyaviy savodxonlik", "Tadbirkorlik asoslari" kabi fanlar joriy etilmoqda. Bu fanlar orqali o'quvchilar iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini, bozor qonuniyatlarini, ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslarini, tovar, pul, foyda, raqobat, mehnat samaradorligi kabi tushunchalarni o'rganadilar. Shuningdek, iqtisodiy fanlar zamonaviy AKT vositalari, raqamli platformalar, virtual simulyatorlar orqali o'qitilmoqda. Masalan, "Google Classroom", "Kahoot", "Quizizz" kabi platformalar yordamida iqtisodiy mashg'ulotlarni interfaol shaklda tashkil etish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Iqtisodiy va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri — ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishdir. Bu orqali o'quvchilar amaliyotda iqtisodiy faoliyatni ko'rish, biznes jarayonlar bilan bevosita tanishish, iqtisodiy hisobot va marketing strategiyalarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu maqsadda ta'lim muassasalari tijorat banklari, kichik korxonalar, sanoat sub'yektlari, startap markazlari bilan hamkorlikda seminar, master-klass, amaliyot darslarini o'tkazishi zarur. O'quvchilarda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ularning iqtisodiy savodxonligini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Chunki iqtisodiy fikrlash orqali o'quvchi mas'uliyatli qaror qabul qilishni, vaqtni to'g'ri taqsimlashni, resurslardan oqilona foydalanishni o'rganadi. Bu esa kelgusida ularni mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllantiradi. Shu boisdan iqtisodiy ta'limga ijtimoiy-pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

Hozirgi kunda xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy ta'lim maktabning dastlabki bosqichlaridanoq

boshlanadi. Masalan, Finlyandiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va AQSh ta'lim tizimida o'quvchilar iqtisodiy o'yinlar, moliyaviy savodxonlik mashg'ulotlari, kichik biznes loyihalari orqali amaliy iqtisodiy faoliyatga tayyorlanadilar. Bu esa ularda tadbirkorlik ruhi, innovatsion fikrlash va iqtisodiy mas'uliyatni shakllantiradi. O'zbekiston ham ana shunday ilg'or tajribalarni o'z milliy ta'lim tizimiga moslashtirib, iqtisodiy ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirish yo'lidan bormoqda.

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarda iqtisodiy va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, mas'uliyat, mehnatsevarlik kabi sifatlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ularning jamiyatdagi faolligi, kasbiy tayyorgarligi va hayotiy qarorlarni qabul qilish qobiliyati ortadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarda tadbirkorlik va iqtisodiy kompetensiyalarni takomillashtirish — bu shunchaki ta'lim masalasi emas, balki mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi omildir. Shu sababli ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish, iqtisodiy fanlarni amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish, o'quvchilarni real iqtisodiy muhitga tayyorlash zarur. Har bir o'qituvchi o'z faoliyatida iqtisodiy tafakkurni shakllantirishni tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi sifatida ko'rishi, o'quvchilarni ijodiy, mas'uliyatli va iqtisodiy jihatdan faol shaxslar qilib tarbiyalashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to'g'risidagi qarori.
2. “O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
3. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi.

4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
5. Avazov B. “Tadbirkorlik ta’limi va innovatsion iqtisodiy tafakkur”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
6. UNESCO (2020). “Entrepreneurial Education in Schools: A Global Framework for Implementation”.
7. OECD (2022). “The Future of Education and Skills 2030”.
8. Xoshimova Z. “Iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari”. – Toshkent, 2022.